

ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

VOLUME I, ISSUE 10



JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**



IMFAKTOR

OCTOBER | 2023

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 10-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-10

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-10

ТОШКЕНТ - 2023

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 10 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-10>

Бош муҳаррир:

Нишонова З.

– психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов Ойбек Ғ.

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

Таҳририят аъзолари:

1. Юсупова Хабиба Ирискуловна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
2. Олимов Лазиз Ярашович – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
3. Элов Зиёдулло Сатторович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
4. Ганжиев Феруз Фурқатович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
5. Мусаева Мухаббат Эшбаевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
6. Умаров Баҳром Норбоевич – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
7. Орипова Раънохон Иброхимовна – педагогика фанлари номзоди, доцент
8. Ўринова Феруза Ўлжаевна – педагогика фанлари номзоди, доцент
9. Ниёзова Лутфия Худайбергандовна – дефектолог - эксперт
10. Салиева Дилором Абдуллаевна – психология фанлари номзоди
11. Останов Шухрат Шарифович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
12. Рустамов Шавкат Шухратович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
13. Халлокова Максудахон Эргашевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
14. Исмаилова Раъно Нураевна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
15. Саримова Дилдора Соаталиевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
16. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
17. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
18. Худайбергандов Шухрат Шавкат ўғли – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
19. Исматова Дилафруз Тўймуратовна – психология ф.б.ф.д. (PhD)

“Педагогик ва психологик тадқиқотлар” журнали 2022 йил 22 декабрь кунини **№ 054834**-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6** та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 8.2** “**импакт-фактор**” кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади**.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

NABIYEVA Dilorom Temirovna

Mustaqil tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10044126>

Oilani savodsizlik va zo'rovonliklardan himoya qilishning psixologik muammolari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola oilani savodsizlik va zo'rovonliklardan himoya qilishning psixologik muammolarini yechishga qaratilgan bo'lib, o'z navbatida yoshlarning kelajagiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning bilib-bilmay jinoyat ko'chasiga kirib qolishiga sabab bo'layotganligi, zo'rovonliklardan himoya qilish, yoshlarimizda ta'lim-tarbiya berishda oilaning muqaddas ekanligi, ma'naviy va axloqiy jihatdan sog'lom hamda barkamol shaxsni tarbiyalashda muhimligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: savodsizlik va zo'rovonlik, shaxslararo munosabatlar, bolalaridagi inqiroz, oilada nizoli vaziyatlar, mustahkam oila, oila g'amxo'rliqi, oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari, oilaviy munosabat, mamlakat va millat, oila huquqi normalari, ma'naviy tarbiyalash, shaxsiy tavsifga ega bo'lish.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ЗАЩИТЫ СЕМЬИ ОТ НЕГРАМОТНОСТИ И НАСИЛИЯ

АННОТАЦИЯ

Данная статья направлена на решение психологических проблем защиты семьи от неграмотности и насилия, что в свою очередь оказывает негативное влияние на будущее молодых людей, заставляя их по незнанию выходить на улицу преступности, от насилия, защиту святости семья в воспитании нашей молодежи, важность воспитания духовно и нравственно здорового и всесторонне развитого человека.

Ключевые слова: неграмотность и насилие, межличностные отношения, кризис детей, конфликтные ситуации в семье, крепкая семья, забота о семье, важнейшие социальные задачи семьи, семейные отношения, страна и нация, нормы семейного права, нравственное воспитание, характеристика личности иметь

PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF PROTECTING THE FAMILY FROM ILLITERACY AND VIOLENCE

ANNOTATION

This article is aimed at solving the psychological problems of protecting the family from illiteracy and violence, which in turn has a negative impact on the future of young people, causing them to unknowingly enter the street of crime, from violence protection, the sanctity of the family in the education of our youth, the importance of raising a spiritually and morally healthy and well-rounded person.

Key words: illiteracy and violence, interpersonal relations, crisis in children, conflict situations in the family, strong family, family care, the most important social tasks of the family, family relationship, country and nation, norms of family law, moral upbringing, personal description to have

Bugungi kunda jamiyat va oilada sogʻlom barqaror ijtimoiy-maʼnaviy muhit, tinchlik, totuvlikni taʼminlash hamda notinch va muammoli oilalarga, ayniqsa shunday oilalardagi xotin-qizlarga, bolalarga manzilli koʻmaklashishni tashkil etish davlatimiz va hukumat miqyosida kun tartibidagi dolzarb masalalardan biriga aylangan. Oila tinch boʻlsa, mahalla, el-yurt tinch boʻladi, qachonki oila tinch boʻlsa, unda tarbiyalanayotgan bolalar psixologik sogʻlom va intellektual barkamol boʻladi, xotin-qizlar huquq va manfaatleri himoyalangan boʻlsa psixologik sogʻlom va intellektual barkamol bolalar dunyoga kelishiga va tarbiyalanishiga zamin yaraladi.

Ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish va zoʻravonlikka barham berish maqsadida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligiga qaramasdan, jamiyatda hanuz zoʻravonlik illatining uchrayotganligi sir emas. Oilada, ishda, koʻchada ayollarga nisbatan zoʻravonlik holati mavjudligi, har qanday jamiyat uchun inson huquqini poymol qilish bilan bogʻliq boʻlgan juda jiddiy muammo sanaladi. Oʻzbekistonda xotin-qizlarni oʻzida jamlagan eng katta tizim Xalq taʼlimi tizimidir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taʼlim, Fan va madaniyat masalalari boʻyicha tashkiloti – YuNESKO maʼlumotlariga qaraganda, bugunki kunda jahonda oʻn milliondan ortiq bolalar taʼlim olishdan mahrumligicha qolmoqda, 85 milliondan ortiq bola mutlaqo oʻqish va yozishni bilmas ekan. Savodsizlik va zoʻravonlik qurboni boʻlish oʻz navbatida, yoshlarning kelajagiga salbiy taʼsir koʻrsatib, ularning bilib-bilmay jinoyat koʻchasiga kirib qolishiga sabab boʻlmoqda. Shunday ekan, zoʻravonlikning ijtimoiy muammolari psixologik jihatdan tahlil qilinishi hamda uni keltirib chiqaruvchi muhim jihatlarni oldini oluvchi nazariy va metodologik yondashuvlarning psixologik omillarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar jiddiy ahamiyat kasb etadi.

Bolalar boʻyicha AQSh Milliy komissiyasi tarqatgan maʼlumotlarga qaraganda, - “Koʻp holatlarda bolalar arzimagan narsalar uchun va zarurat boʻlmasa ham zoʻravonlik yoʻli bilan oilalardan tortib olinib, ularni jinoyatchi qilib tarbiyalanayotganligi, Germaniyada yuz berayotgan jinoyatlarning teng yarmi voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotganligi aytiladi. Bolalarning giyohvand moddalar savdosi bilan shugʻullanuvchi uyushgan jinoiy guruhlar safiga kirib qolayotgani, yoki odam organlari bilan savdo qilayotganlar qoʻliga tushib qolayotgani ham ayanchlidir. Bir qator mamlakatlarda balogʻatga yetmagan bolalar jangarilar safida qoʻliga qurol olib jang qilayotganidan ham koʻz yumib boʻlmaydi” [1].

Jamiyat va davlatning oilaga gʻamxoʻrligi bizning ijtimoiy siyosatimizning muhim yoʻnalishiga aylangan. Oila va yoshlar tarbiyasi masalalariga Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev alohida eʼtibor berib kelmoqda. Shavkat Mirziyoevning 29 dekabr 2020 yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida soʻzlagan nutqida yoshlarning huquqiy tushunchalarini shakllantirish va taʼlim-tarbiya olish jarayonlariga alohida toʻxtalib oʻtdi: - “Bir soʻz bilan aytganda, bola tugʻilganidan boshlab, 30 yoshgacha boʻlgan davrda uni har tomonlama qoʻllab-quvvatlaydigan, hayotda munosib oʻrin topishi uchun koʻmak beradigan, yaxlit va uzluksiz tizim yaratiladi.

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o‘n, yuz barobar ko‘p foyda keltiradi.

Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino, bundan ming yil oldin “*Dovyurak va botir insonlar kelajakda sodir bo‘ladigan qiyinchiliklardan qo‘rqmaydi*”, deb bejiz aytmagan.

Yaqinda Qashqadaryo, Xorazm viloyatlarida va Toshkent shahrining Chilonzor tumanida bo‘lib o‘tgan uchrashuvlarda yoshlarimiz tomonidan bildirilgan dadil fikr va tashabbuslar meni juda quvontirdi.

Ayniqsa, kuni kecha Yoshlar forumida o‘g‘il-qizlarimizning yonib turgan ko‘zlarida ulkan azmu shijoatni, bilimga tashnalik va yangilikka intilishni ko‘rib, yanada ruhlantim va ulardan kuch oldim. Ibn Sino bobomiz aytgan dovyurak va botir yoshlar aynan shu farzandlarim ekaniga yana bir bor amin bo‘ldim. Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko‘ra olish fazilatlarini, yoshlarimizdagi g‘ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko‘zlagan marralarga albatta yetamiz.

“Yangi O‘zbekistonni ana shunday bilimli va bunyodkor yoshlarimiz bilan birgalikda barpo etamiz”, - dedi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev.

Tabiiyki bolaning garmonik tarbiyasini oilaviy tarbiyasiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Bolalardagi inqoroz bu ularning yosh davrlariga ham bog‘liq bo‘lib, olimlar tomonidan tadqiqotlarda o‘rganilgan. Oilaviy munosabatlarda V.Schuman yoshga bog‘liq holda yuzaga keladigan nizolarni I.Kon esa oiladagi nizolarning bolalarning rivojlanishiga ta’siri borasida tadqiqotlarida o‘z fikrini bildirib o‘tadi. Oilaviy nizolar ichki shaxsiy nizo va shaxslararo nizoli vaziyatlarda ota-onalar bilan bo‘ladigan munosabatda kelib chiqadi. Aksariyat hollarda ota-onalar bolalaridagi 3-6, 13-14, yoshlarda muqarrar ravishda bo‘lib, o‘tadigan inqirozlarni bilishmaydi. Bu yosh davrining bosqichlarida bola ruhiyatida yangi psixologik xususiyatlar, harakter o‘zgarishi ham kuzatiladi. Buni biz ularning ota-onalar bilan bo‘ladigan munosabatida kuzatishimiz mumkin. Bolalikdan maktabgacha yosh davri inqorozi, boshlang‘ich maktab yoshi o‘tish inqirozi, o‘spirinlik va o‘smirlik yosh davri bilan kechadigan inqiroz nizoli vaziyatlarni keltirib chiqaradi.

O‘sib kelayotgan yosh avlod o‘zi uchun va ota-onalari uchun ma’suliyatni his etadigan darajada yuksaklikka ko‘tarilmog‘i uchun unga nihoyatda mustahkam ma’naviy chiniqish darkor. O‘z bolasini hayotdagi murakkablik va ziddiyatlardan chetga tortadigan, o‘z bolasi uchun har sohada hamma narsani muhayyo qiladigan ota-onalar qo‘lida tarbiya topgan bolalarda xuddi shunday ma’naviy chiniqish ko‘p hollarda yetishmaydi. Tarbiyalash –ovqatlanish –bu so‘zlarning ikki xil ma’nasi bor. Birinchisi tarbiyalashni nazarda tutsa ikkinchisi uning ma’naviy tarbiyalashini nazarda tutadiki ularning har ikkalasini ham bir vaqtda aniq bir maqsadga qaratilgan holda – ya’ni bolani to‘g‘ri tarbiyalash maqsadida foydalanish lozim. Bir necha yillar davomida olib borilgan kuzatishlardan shuni ko‘rishimiz mumkinki kichkintoy bolalar ikki tarbiyachining ixtiyoriga berib qo‘yiladi [5].

Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotida o‘rni aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi uning insoniy qiyofasi fazilatlarini hattoki nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. O‘z vaqtida Napoleon Banapart shunday deydi “Qilich bilan har narsa qilish mumkin faqat uning ustiga o‘tirib bo‘lmaydi”. Bu fikrida u ko‘pincha insonlar o‘rtasidagi bo‘lib turadigan nizolarni ziddiyatlarni nazarda tutadi. *O‘sib kelayotgan yosh avlod o‘zi uchun va ota-onalari uchun mas’uliyatni his etadigan darajada yuksaklikka ko‘tarilmog‘i uchun unga nihoyatda mustahkam ma’naviy-psixologik chiniqish darkor. O‘z bolasini hayotdagi murakkablik va ziddiyatlardan chetga tortadigan, o‘z bolasi uchun har sohada hamma narsani muhayyo qiladigan ota-onalar qo‘lida tarbiya topgan bolalarda xuddi shunday ma’naviy chiniqish ko‘p hollarda yetishmaydi, natijada oilada turli nizoli vaziyatlar kelib chiqadi.* Zero, oilada nizoli vaziyatlarni yuzaga kelishida birinchi tarbiyalashni nazarda tutsa, ikkinchisi uning ma’naviy tarbiyalashini nazarda tutadiki, ularning har ikkalasini ham bir vaqtda aniq bir maqsadga qaratilgan holda olib borilishi oilaviy nizolarni yuzaga kelishini oldini oladi.

Oilaviy munosabat madaniyati nima? Bu – oilada insonga xos va mos sharoitlarni yaratish, oilaning vazifalarini to‘la bajarish, oilaviy turmush tarzini to‘g‘ri shakllantirish, oila a‘zolarining xulq-odobi, dunyoqarashi, mafkurasini, oilaviy hayotning davomiyligini ta‘minlashdir. Mustahkam oila mustahkam jamiyatning asosidir. Shunday ekan jamiyat oilalarni mustahkamlash, oilaviy munosabatlarda shaxsning umummadaniy dunyoqarashini shakllantirib, takomillashtirishga alohida e‘tibor berib kelmoqda. Oila va oilaviy munosabatlarda shaxsning umummadaniy dunyoqarashini ilmiy tadqiq etishni uning jamiyat taraqqiyoti qonunlariga muvofiq rivojlanishini ifodalashdan boshlamog‘imiz lozim. Oilaning rivojlanishi jamiyatning moddiy ishlab chiqarishi va ma‘naviy hayoti bilan bog‘liqdir. Oila shakllarining o‘zgarishi, ibtidoiy jamiyat davridan boshlab barcha tarixiy bosqichlarda moddiy ishlab chiqarish ma‘naviyatidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq ekanligi ilmiy adabiyotlarda keng tahlil etilgan [2].

Lekin jamiyatning, oilaning moddiy hayot sharoitlari o‘zgarishi o‘z-o‘zidan ma‘naviy kamolotga olib kelmaydi. Madaniy qashshoq bo‘lgan odam boy bo‘lib qolsa, birdaniga ma‘naviy kamolot darajasiga ko‘tarilib qolmaydi. Pedagog-psixolog olimlar mazkur mavzuning ta‘lim-tarbiyaviy jihatlarini tadqiq etib, oilaning shaxs tarbiyasida tutgan o‘rniga alohida e‘tibor berib, oilaviy tarbiyani umumiy tarbiyaning bir qismi sifatidagi jihatini yoritishmoqda; psixolog olimlar oila va oilaviy munosabatlarga etno-psixologik jihatdan yondoshmoqdalar.

Shuni alohida ko‘rsatib o‘tish kerakki, Markaziy Osiyo mutafakkirlari va ma‘rifatparvarlari Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf xos Xojib, Kaykovus, Devoniy, Alisher Navoiy, Bobur, Munis Xorazmiy, Bedil, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Qori Niyoziy, Cho‘lpon, Fitrat va boshqalarning asarlarida oila va oilaviy munosabatlar haqida qimmatli fikrlar mavjud. Ularning ko‘plarida mazkur masalaga oid qarashlar muayyan tartibga tushirilgan va ta‘limot darajasiga ko‘tarilgan. Xususan, Abu Ali ibn Sinoning “Axloq”, “Oila xo‘jaligi”, Alisher Navoiy “Hayrat-ul abror” va “Mahbub-ul qulub” asarlarida oilaga alohida e‘tibor bilan qarab, uni inson kamolga erishuvda asosiy makon deb bilganlar. XX asr boshlaridagi ma‘rifatparvarlik harakatining asoschilaridan biri Fitratning “Oila” asarida oila asosini to‘g‘ri qurish, oilada yosh avlodga jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya berish orqali mana shu turg‘unlikdan qutilish, jamiyatni isloh qilish mumkinligini bayon qilgan. “Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog‘liqdir...”

Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo‘ladi” deb yozadi. Oiladagi o‘zaro munosabatlar madaniyati malakasi tasavvuf falsafasida ham alohida o‘rin tutadi. Bu falsafaning yirik vakillari bo‘lgan Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro tariqatlarida ota va onalar o‘zaro munosabatlarining farzandlar kamolotidagi roli, farzandlarning ota-onalarga bo‘lgan munosabati mavzui alohida ta‘kidlab o‘tilganligini ko‘ramiz. Haqiqatdan ham ota-onaga ozor bermaslik, ularning dilini vayron qilmaslik, muloyimlik bilan suhbatda bo‘lish, ko‘nglini ko‘tarish aytganlarini vaqtida bajarish, farzandning ota-ona oldidagi burchidir [3].

Xulosa qilib aytganda, ota-onalar ham farzandlariga muloyimlik hamda ularning individual xususiyatlariga qarab muomalada bo‘lishi ziddiyatlarni oldini olishga va farzandlarini barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishiga xizmat qiladi. Masalan: Qizaloqlar onasining lab bo‘yog‘i, kiyim va taqinchoqlari, pardoz vositalariga juda qiziqishadi. Ayrim ota-onalar nazdida bu yaxshi emas, bolaga yanada qattiqroq turish kerak. Ona qizalog‘ini urishadi: «Nega pomadamga tegding?» yoki «Yosh bolaga qimmat ko‘ylak kiyishni kim qo‘yibdi?» deya. Bola esa nima uchun dakki eshitayotganini anglolmaydi. Taqiq sababi tushuntirilmasa, u qanday oqibatlariga olib kelishi haqida to‘g‘ri axborot berilmasa, bolada javobsiz savollar ko‘payib boradi. Zotan, «Sen hali kichkinasan», deyish qoniqarli izoh emas. Ayniqsa, o‘g‘il bola tarbiyasida ushbu ibora imkon qadar ishlatilmagani ma‘qul. Sababi, u o‘g‘il boladagi faollik, ijobiy fikrlash qobiliyatini yo‘q qiladi. Bola erkin harakat qilishdan, mustaqil fikrlashdan cho‘chib qoladi. Yangilik qila olmay, o‘ziga ishonchi past bo‘lib ulg‘ayadi. Oilaviy munosabatlar uchun o‘ziga ishonch, rahmdillik, beg‘arazlik, fidokorlik, ishonuvchanlik, itoatkorlik, murosakorlik, mustaqillik qadriyatlarini, shaxs sifatlarini tarkib topishi oilaviy nizolar va ularning kelib chiqish sabablarini bartaraf etadi [4].

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda qilgan maruza. T., Xalq so‘zi, 2020 yil dekabr.
2. Sh.M.Mirziyoev “Yoshlar forumidagi va ma’naviyat haqidagi” nutqidan 25 dekabr 2020 yil, 18:00 Siyosat.
3. I.A.Karimov Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. Toshkent; Ma’naviyat, 2008 y.
4. Avesto – tarixiy-adabiy yodgorlik. – T.: «Sharq», 2001, 13–20-betlar.
5. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: Adolat. 1998. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 yil, №5-6, ilova.
6. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: Rasmiy nashr. 2003.
7. Mualliflar jamoasi. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharxlar. – T.: Adolat. 2000. – 446 b.

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 10-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-10

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-10

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz